

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**SOCIALIZATION IN VIRTUAL SPACE AND SAFETY FACTORS IN IT****O. S. Makhammatov**

Head of the cycle of the State Emergency Service of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Philosophy
Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Virtual space, social networks, rational, institutional, subordination, information space, security, virtual culture.

Received: 07.12.24**Accepted:** 09.12.24**Published:** 11.12.24

Abstract: There is no network that has not been penetrated by the concept of virtual space and its scope and scope. Today, our level of dependence on social networks is increasing to such an extent that we are even reaching the point of seeing our device that connects to the virtual world as part of our body, figuratively speaking.

VIRTUAL MAKONDA IJTIMOIYLASHUV VA UNDA XAVFSIZLIK OMILLARI**O. S. Maxammatov**

O'zbekiston Respublikasi FVV BT va MOM sikl boshlig'i, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Virtual makon, ijtimoiy tarmoqlar, ratsional, institutsional, tobeylik, axborot maydoni, xavfsizlik, vertual madaniyat.

Annotatsiya: Virtual makon tushunchasi va uning tasir doirasi, kulamdorligi kirib bormagan tarmoq qolmadi. Bugun tobeylik darajamiz ijtimoiy tarmoqlarga shunchalar ortib bormoqdagi hattoki uni majoziy ma'noda aytganda virtual olamga bog'lanuvchi jixozimizni tanamizning bir qismi sifatida ko'rish darajasiga yetib qolmoqdamiz.

СОЦИАЛИЗАЦИЯ В ВИРТУАЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ И ФАКТОРЫ БЕЗОПАСНОСТИ В НЕМ**O. C. Махамматов**

Заведующий факультетом искусств и наук Республики Узбекистан, доктор философских наук
Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Виртуальное пространство, рациональное, подчинение, пространство, безопасность, виртуальная культура.	Аннотация: В сеть не проникла концепция виртуального пространства, сферы его влияния и юмора. Сегодня наш уровень зависимости от социальных сетей возрастает настолько, что мы выходим на уровень восприятия их как части нашего тела, которая подключается к виртуальному миру.
--	---

Kirish: Virtual makon asosida dunyoni tasavvur etishimiz, insoniy mezonlarimizni virtuellashtirishimiz odatiy holga aylanib ulgurdi. Axborotlar bizni shu darajada tobeylik sari yetaklab bormoqdaki uning keng ko‘lamli maydoni insonlarni axborotlar iste’molchisi sifatida boshqa yumushlaridan ham ustunlik darajasiga erishmoqda.

Asosiy qism: Bugun virtual makon vositalari doirasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy, iktisodiy va boshqa ko‘rinishlardagi ijobiy va salbiy ko‘rsatkichlar ayniqsa bu yoshlar olamida, ularning dunyoqarashida katta ta’sir kuchiga ega bo‘lmoqda.

Aksariyat aholi qatlamida ijtimoiy tarmoqlarning salbiy jixatlarini tez-tez yodga olinishi odatiy tus olgan. Lekin uning afzalliklari, undan to‘g‘ri foydalanish xususiyatlarini ko‘p hollarda e’tirof etmasakda, keng ko‘lamli va to‘liq foydalanishga odatlanib qolganmiz. Bunda eng ta’sirchan va beriluvchan qatlam bu albatta yoshlar ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Xo‘sh yoshlarning virtual makonda ijtimoiy-madaniy xafsizligini ta’minlashning ratsional va institutsional tashkillashish muammolari nimalarda bugun namoyon bo‘lmoqda, ularga qarshi samarali yechimlarda qanday yondoshuv bo‘lishi kerakligi bugun barcha soha mutaxassislarini tizimli o‘ylantirib kelmoqda.

Yoshlar ijtimoiy hayotida ayni o‘tish va balog‘at davri mobaynida turli ruxiy, psixologik o‘zgarish omillari ko‘zga tashlanadi.

Bugun ushbu o‘zgarish va qarashlar jarayonlarida yoshlar aksariyat holatlarda turli virtual jamoalardan hammaslaklar qidirish, uni tushunadigan hudud aynan virtual jamoalarda borligini ro‘kach qilish, ular bilan o‘rtoqlashishi, o‘ziga tasalli izlash, ularga ovingan holatda vaqtini kechirish jarayonlari tezlashib bormoqda.

Unda tabiiy savol tug‘iladi ijobiyligidan salbiyligi yuqori ekanda virtual tarmoqlarning degan. Bizning fikrimizcha yo‘q dunyo bilan integratsiyalashgan holda yashash va fikrlash ijod qilish zarurat sanaladi. Unda nimadan hadiksirashimiz kerak? Albatta virtual madaniyat va savodxonlik yetarli darajada emasligidan.

Echim sifatida turli misollar keltiriladi. Bugun virtual tarmoqlarda ma’naviy, axloqiy, ma’daniy, ijtimoiy-siyosiy obrazlarni o‘zida aks ettiruvchi milliy saytlarimizni yaratishni yanada kuchaytirib, ularga bo‘lgan intilishlarni, qiziqishlarni orttirish maqsadida, turli ma’lumotlarni, sahna

ko‘rinishlarini, ijtimoiy roliklarni tegishli komissiyalar tavsiyasi asosida joylashtirilishi masalasini ham qayta ko‘rib chiqilishini zarurat deb hisoblaymiz.

Hozirda balog‘at yoshidagi o‘smirin qatlam asosan soni va jozibadorligi yuqori bo‘lgan g‘ayri madaniyat sohiblari muallifligi ostidagi nomaqbul axborot ta’sirlari bilan ongi sug‘orilmoqda. Bular ta’siriga tushgan avlod vakillarida o‘z navbatida seriyali salbiy oqibatlarni yuzaga keltira boshlaydi. Masalaning yana bir jixati shundaki, shu ta’sir ostida ulg‘aygan avlod o‘zlari ota-ona darajasiga yetganda haqiqiy tanazzul belgilari namoyon bo‘la boshlaydi. Chunki bular uni odatiy hol, bunday bo‘lishi mumkin emasligi, tasavvur qilinishi ham noo‘rinligi to‘g‘risidagi saboqlardan yiroq bo‘lib o‘sgan sanaladi.

Jumladan, ota-onaga bo‘lgan mehrning yo‘qolib borishi va bu ikki darg‘ani vosita sifatida e’tirof eta boshlash.

- Ota va ona tomonidan kursatiladigan to‘g‘ri yo‘l va pand nasihatlardan ijtimoiy tarmoqlar orqali anglagan tasavvurlarini ustun qo‘yish.

- Yosh oila jamolarida o‘zaro oilaviy yuzaga kelayotgan mayishiy masalalarda ham virtual jamoalardagi akli ham hamin qadar bo‘lgan turli nomlar va ko‘rinishlar ostidagi maslahatguylarni o‘ziga daho sifatida tanlay boshlashi hamda natijada oilaviy tanazzullarning yuzaga kelishi.

- Yoshlik orzu havaslari virtual jamoalardagi obrazli qilib yoritilib boriladigan oson va mehnatsizdek tuyiladigan turmush tarziga berilib ketish. Buning natijasida kosmopolitizimning yoshlar orasida avj olishi.

Yuqoridagi barcha omillarning eng salbiy jixati, xavsizlik ataladigan keng tushunchaning barcha bosqich ko‘rinishlarida yemirilishlar yuzaga kela boshlashi bilan baholanishidir. Kaysiki ma’noda do‘stona ko‘rinishdagi muxolifatchi kuchlar o‘z manfaatlari borasida virtual makon ta’sirchanligi va jalb etish metodologiyasi bilan bizga nisbatan yetakchi va boshqaruv ularning ixtiyorida ekanligi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlarga bir tomonlama yondoshilgan holda muntazam negativ qidiruvchi vertual tarmoq jamoalari tomonidan norozilik kayfiyatini aks ettiruvchi ma’lumotlar ko‘laminig orttirilib, bo‘rttirilib va ta’sirchan ko‘rinishlarda ulashilayotganligi ham yoshlar auditoriyasiga ham o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayotganligidir. Buning natijasida huquqiy nigilizm avj olishi davlat hokimiyati vakillariga nisbatan hurmatsizlik, ishonchsizlik ho.kazolar ko‘rinishida namoyon bo‘lishi kabi omillarning kelib chiqishini ham biz ko‘p uzoqlardan qidirmasak ham bo‘ladi hisoblaymiz.

Endi ijtimoiy tarmoqlarga nazar soladigan bo‘lsak yuqoridagi tarqatilayotgan axborotlarga qarshi asosli raddiyalarni keltiruvchi va mamlakatdagi o‘sha muxolifat tomonidan tanqidga olib takidlangan islohotlarimizni ijobiy jixatlarini namoyon qilib beruvchi har tomonlama puxta ishlangan jozibador lavhalarimizni ratsional va institutsional tarzda to‘liq yo‘lga qo‘ya olmayotganligimiz ham

yuzaga chiqib qolmoqda. Borlari soni ham barmoq bilan sanagulikdir. “Menimcha” loyihasi singari boshqa tarmoqlarni ham puxta yoritib beradigan lavhalar xususida to‘xtalib o‘tmoqdamiz.

Tashqi omillar ta’sirida, yana bir virtual tarmoqlar orqali bizning mintaqamiz uchun yetiltirilib kelinayotgan omillardan biri bu dinni noto‘g‘ri targ‘ib qilish va shu orqali diniy fonning juda ham oshirilib yuborilayotganligi. Unda shunchalar jozibadorlikning barcha elementlarigacha ahamiyat qaratilganki uning kuzatuvchisi bo‘lgan go‘l qalblarda mukkasidan ketib, fundamentalistik qarashlar ortib borishidir. Bu esa dunyoviylik taraqqiyoti mezonlari sanalgan aniq fanlar va qarashlardan biroz chekingan holda, ilohiyot ilmining jamiyatdagi barcha muammolar yechimi va taraqqiyotning bosh bo‘g‘ini darajasigacha olib chiqish, diniy ilmlarni dunyoviy davlat boshqaruvi tamoyiliga singdirishgacha bo‘lgan targ‘ibotlarga zo‘r berilayotganligidir.

Shu o‘rinda, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Islom tarixi” kitobida keltirilib o‘tilgan ushbu jumalarni keltirib o‘tishni ham lozim deb hisoblaymiz. “Kim “Hazrat Umar faqat islomiy, ya’ni Qur’on, hadis, fiqh kabi ilmlargagina e’tibor bergan” deb o‘ylasa, katta xato qilgan bo‘ladi. Hazrati Umar o‘z davrlaridagi jamiyat uchun foydali bo‘lgan barcha ilmlarga bir xil munosabatda bo‘lganlar” deyiladi.

Ma’naviy qadriyatlarimizga yetayotgan xavflar, jumladan, besoqolbozlik va boshqa illatlarga xavf sifatida qarab borayotganligimizni yanada kuchaytirishni talab qilmoqda. Bular ham aynan virtual makon ta’sirida targ‘ibotini sodir etmoqda.

Virtual tarmoqlar orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklar ham jiddiy xavf, ya’ni iqtisodiy xavfsizligimizga nisbatan ham raxna solish darajasigacha yetib kelishga intilmoqda. Bular bir vaqtning o‘zida jismoniy va yuridik shaxslarni ham chetlab o‘tgan emas. Jabrlanuvchi sifatida ro‘yxatga olinayotganlar soni kun sayin ortib borib, turli ko‘rinishlarda ushbu huquqbuzarliklar sodir etilmoqda. Aksariyat holatlarda mamlakat tashqarisidan turib amalga oshirilayotgan bu holatlarning viktimologiyasiga fuqarolarimiz aylanmoqda. Xo‘sh bularga qarshi nima qilish zaruratligi faqatgina virtual madaniyatni, virtual savodxonlikni yanada kuchaytirish va bizni shu kuchlardan himoyalay oladigan, kerak bo‘lsa, unga qarshi ta’sir qila oladigan salohiyatga ega bo‘lgan qatlamni davlat sektorida yanada rag‘batlantirish zaruratdir.

Yosh avlodni sog‘lom avlod sifatida xavflardan saqlab qolish muammosi davlat siyosati darajasida qaraladigan masalalardan biri bo‘lishiga qaramasdan, hozirda bevosita virtual tarmoqlar orqali amalga oshirilayotgan onlayn ya’ni narkotik va boshqa ko‘rinishdagi psixotrop moddalar savdosining amalga oshirilishi ko‘lamdorligi ortib borayotganligi ham eng tashvishli nuqtalardan biriga aylanmoqda. Yoshlarga tegishli masalalarda ularni sog‘ligi va ta’limi va boshqa manfaatlariga putur yetkiziladigan barcha omillar uchun tegishli sanksiyalarni yanada og‘irlashtirilishini taklif qilgan bo‘lar edik.

18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 1000 nafar respondentlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, har bir yosh har kuni kamida 4 soatdan 8 soatgacha bo'lgan vaqtlarini virtual tarmoqlarda o'tkazishar ekan.

Demak, bundan ko'rinib turibdiki 18 yoshli yosh 30 yoshga to'lguniga qadar, bir sutkada kamida 4 soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflaganda 2 yil umrini, 8 soat vaqtini sarflaganda esa 4 yil vaqtini bag'ishlagan bo'lar ekan. Biz bu bilan foydali ish ko'rfitsenti yo'q demoqchi emasmiz virtual tarmoqlarni. Masalan, virtual madaniyat asosida foydalangan holda 4 soatda 1 dona xorijiy so'z o'rgangan foydalanuvchi 1 yilda 365 ta so'zni mukammal o'zlashtirar ekan. 12 yilda esa 4380 ta so'z boyligiga ega bo'lar ekan. Xulosa o'zimizdan.

Mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ortiqrog'i yoshlar ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ular bugun to'liq virtual makonning qaysidir tarmoq faollari va uni harakatlantirib turgan kuchlari sifatida maydonga chiqmoqda. Endilikda faqatgina virtual madaniyatni va virtual savodxonlikni shakllantirish zarurat. Virtual makonning har qanday salbiy illatlariga qarshi tura oladigan kuch bu faqat va faqat virtual madaniyat va savodxonlik sanaladi.

Virtual madaniyat nimani beradi bu birinchi navbatda bugun uzatilayotgan axborotlarni faqatgina ko'rishning o'ziga o'rtacha umr yoshining yetmasligi ya'ni 70-80 yillik vaqtni talab qilishi olimlar tomonidan isbotlab ko'rsatilmoqda. Bu surat o'ssa o'sadiki pasaymaydi. Shunday ekan biz har qanaqasiga virtual makondan voz kechish haqida o'ylashimizning o'zi noo'rin. Faqatgina ayrim tarmoqlarga nisbatan qisman tahlillashlarimiz bilan yonma-yon yurishimiz, boshqa holatlarda virtual madaniyatimiz va savodxonligimiz bilangina himoyalana olishimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa o'rnida, shunday jamoalar shakllantirilib borilishi kerakki, bizga nisbatan virtual makonlar orqali qo'llanilayotgan axborotlarga qarshi vaqtida va o'rnida asosli ravishda, ko'p bor e'tirof etiladigan shior asosida ya'ni g'oyaga qarshi g'oya, jaxolatga qarshi ma'rifat bilan javob qaytara oladigan tizimli maydon vakillarini yaratishimiz kerak.

“Farzandlaringizga o'z zamonasiga most ilmni bering” degan aforizmga ko'p bor duch kelamiz. Bugun yon atrofimizga nazar soladigan bo'lsak axborot kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishga bo'lgan intilish ham zamonamiz bilimlarining eng yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanib ulgurgan. Bular esa o'z navbatida xorijiy til bilan ham chambarchas bog'liq holda kechmoqda. Bu esa o'z navbatida virtual makonda ortda qolmaslikni ta'minlovchi bosh omillardan biri bo'lib xizmat qilsa. Yana bir jixati bugun biz o'zlashtirayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tezda mahalliyashtirilishiga va ularni yanada takomillashtirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxammatov O.S Global ijtimoiy-madaniy jarayonlarda yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy xavfsizligi masalalari. Monografiya, "Samarqand davlat chet tillari instituti" nashriyoti Samarqand-2024
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Islom tarixi" 1-2 kitoblar Nashriyot: "HILOL NASHR" nashriyot-matbaasi 2023 y
3. Maxammatov O.S O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy xavfsizligi masalasi. Imom Buxoriy saboqlari № 3/2021 y
4. <https://www.lex.uz>